

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SHFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pxxomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Burxanov Xusniddin,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Milliy universiteti "Sotsiologiya"
kafedrasida mustaqil izlanuvchisi
e-mail: doktorantt@mail.ru

MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSİYALASHUVINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423462>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash va milliy saytlarni rivojlantirish muammolari o'rganilgan. Shu bilan birga axborot xavfsizligi va jamoaviy xavfsizlik masalalarining nazariy jihatlari ko'rib chiqilgan hamda raqamli jamiyatda insonlar tomonidan global internet tarmog'idan olinayotgan axborotlarning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada axborot tizimidagi imkoniyatlarning kengayishi, turli mazmundagi veb-saytlarning ko'payishi, internet tarmoqlarida O'zbekiston milliy saytlarini rivojlanishi, mintaqadagi holati va muammolari, milliy kontentni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, o'z mazmuniga, maqsadi va yo'nalishlariga ko'ra, destruktiv faoliyat olib borish belgilari mavjud bo'lgan axborotlarni tarqatilishi ko'rsatilgan. Ayni vaqtda axborotlarni kompyuter tarmog'i orqali insonga ta'sir o'tkazadigan ma'lumotlar, axborotlardan Internet tarmog'ida foydalanish holatlari tadqiq etilgan. Shu bilan birga milliy segmentdagi ijtimoiy tarmoqlarga a'zolar va tashriflar soni kamligi, milliy segment tarkibidagi saytlar faoliyatini qoniqarsizligi, ularning faoliyatini takomillashtirish lozimligi ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha zarur bo'lgan tashriflar sonini yanada oshirish uchun xorijiy davlatlarning ijtimoiy tarmoqlari kabi texnik imkoniyatlar va dolzarb mavzular, tahliliy maqolalar va dizayn masalalariga e'tibor berish zarurligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, axborot xavfsizligi, milliy saytlar, milliy kontent, milliy segment, axborot resurslari, destruktiv axborot, internet foydalanuvchisi, ijtimoiy tarmoq, terrorizm, ommaviy kommunikatsiya, texnologiya, innovatsiya.

Бурханов Хусниддин,

доктор философии (PhD) по социологическим наукам,
независимый соискатель кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
e-mail: doktorantt@mail.ru

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ САЙТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы обеспечения информационной безопасности и развития национальных веб-сайтов в цифровом обществе. При этом рассматриваются

теоретические аспекты информационной безопасности и вопросы общественной безопасности, раскрывается значимость информации, получаемой людьми из глобальной сети Интернет в цифровом обществе. В статье также освещаются вопросы расширения возможностей информационной системы, увеличения веб-сайтов с различным контентом, развития узбекских национальных сайтов в Интернете, ситуации и проблем в регионе, развития национального контента. Кроме того, указывается, что распространение информации, которая по своему содержанию, цели и направленности имеет признаки деструктивной деятельности. В настоящее время основное внимание уделяется исследованию влияния информации на человека через компьютерные сети, а также использованию информации в Интернете. В то же время выявлены низкая численность участников и посещений социальных сетей в национальном сегменте, неудовлетворительная работа сайтов в национальном сегменте и необходимость улучшения их деятельности. Также указано, что для дальнейшего увеличения количества посещений, необходимых для развития социальных сетей, необходимо уделять внимание техническим возможностям и актуальным темам, аналитическим статьям, вопросам дизайна, например, социальным сетям зарубежных стран.

Ключевые слова: цифровое общество, информационная безопасность, национальные сайты, национальный контент, национальный сегмент, информационные ресурсы, деструктивная информация, интернет-пользователь, социальная сеть, терроризм, массовая коммуникация, технологии, инновации.

Burkhanov Khusniddin,

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD),
Independent researcher of the «Sociology»

Department of the National University of Uzbekistan
e-mail: doktarantt@mail.ru

CHARACTERISTICS OF MODERNIZATION OF NATIONAL SITES

ABSTRACT

This article examines the problems of ensuring information security and developing national sites in the digital society. At the same time, the theoretical aspects of information security and public security issues are considered, and the importance of information received by people from the global Internet network in the digital society is revealed. The article also discusses the expansion of opportunities in the information system, the increase in websites with various content, the development of national sites of Uzbekistan on the Internet, their status and problems in the region, and the development of national content. In addition, the dissemination of information that, according to its content, purpose and direction, has signs of destructive activity is indicated. At the same time, the information that affects a person through a computer network, the use of information on the Internet was studied. At the same time, the low number of members and visits to social networks in the national segment, the unsatisfactory performance of sites in the national segment, and the need to improve their activities were revealed. It is also indicated that in order to further increase the number of visits required for the development of social networks, it is necessary to pay attention to technical capabilities and topical issues, analytical articles and design issues, such as social networks of foreign countries.

Key words: digital society, information security, national sites, national content, national segment, information resources, destructive information, internet user, social network, terrorism, mass communication, technology, innovation.

KIRISH

Raqamli jamiyatda Internet tarmog‘idan samarali foydalanish imkoni aholining faol ijtimoiy qatlam vakillari, xususan, tadbirkorlar, sanoat, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash, boshqaruv tizimidagi xodimlar xalqaro axborot tarmog‘idan yuqori tezlikda foydalanish imkoniyatiga ega

bo'Imoqda. Shuningdek, moliya, bank, xavfsizlikni ta'minlovchi mudofaa, bojxona idoralari xodimlari ham o'z faoliyatida jadal axborot tarmog'iga ulangan. Mamlakatimiz fuqarolarining katta qismi Internet axborot resurslaridan foydalanadi.

Aslida raqamli jamiyat rivojlanishi g'oyasining ommalashuviga sotsiolog nazariyotchi olimlarning "Kelajakdagi postindustrial jamiyat" nomli kitobi muhim metodologik manbalar qatoriga kiradi [1, – B.59]. Tadqiqotda sotsiolog olim jamiyat rivojlanishini uch agrar, industriallashgan va postindustriallashgan bosqichlarga ajratadi. Bunda postindustriallashgan bosqichda raqamlashgan jamiyatga o'tilishi isbotlanadi. Shuningdek, olimlar tomonidan axborot xavfsizligi tushunchasi texnologik va ijtimoiy jihatdan yondashilishi mumkin bo'lgan tushuncha sifatida izohlanadi [2, – B.165] va axborot xavfsizligini ta'minlash texnologik yechimga ega ekanligi hamda ijtimoiy jihatdan ham axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini axborot xavfsizligi bo'yicha nazariyalarda ko'rsatib o'tiladi [3, – B. 95].

METODOLOGIYA

Sotsiolog olimlarning axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratgan nazariy mulohazalari turli yo'nalishlarda shakllangan. Bu borada jamoaviy xavfsizlik sifatida qarashlar mavjud. Ushbu masalada g'arb olimlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarni jamoaning yosh qatlamiga salbiy ta'sir etishi, ijtimoiy tarmoqlarni jamoa xavfsizligini ta'minlashda muammolarni keltirib chiqarishi, jamoani boshqarishga internet salbiy ta'sir etishi [4, – B.22], jamoatchilikda raqamli jamiyatni kuchayib borayotganligi kabi omillar isbotlangan [5, – B.594]. Shuningdek, bu yo'nalishda Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi [6, – B.9]. Bu bugungi kunda jamoalar internet milliy segmentlarini yaratish orqali o'z xavfsizligini ta'minlashga qilgan harakatlarida ko'rinadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichida jamiyatning modernizatsiyalashuvini jadallashtirish, Internet tarmog'iga joylashtirilgan milliy saytlarni kengaytirish, unda shaxsni mazmunli axborot bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Zero, raqamli jamiyatda milliy saytlarni yaratish, ularning faoliyatini islohotlar talablariga mos sur'atda tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari milliy saytlar O'zbekiston imijiga salbiy ta'sir qilishga intilayotgan radikal guruhlar maqsadini fosh qilishga xizmat qilishi maqsadga muvofiq. Milliy saytlardagi muhim yo'nalishdan biri ularning sahifalaridagi materiallar jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Axborot xavfsizligi yoshlar ongida bevosita vatanparvarlik, islohotlar jarayoniga faol ishtirok etish hissini singdirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Milliy saytlar faoliyati jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalariga mos ravishda rivojlanishi vazifasini amalga oshirish juda muhim. Shu nuqtai nazardan dissertatsiyaning mazkur bobida O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida milliy saytlar modernizatsiyasi mohiyati, uning rivojlanish xususiyatlari, jamiyatimizda milliy saytlar transformatsiyasining demokratik islohotlarga mutanosibliigi va milliy saytlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta'siri jarayoni tadqiq qilindi.

Raqamli jamiyat rivojlanish davrida Internet saytlaridagi turli axborot individlar ongiga ta'sir etib, ularning dunyoqarashini o'zgartirib borayotgan bir paytda tarmoqdan foydalanuvchilarni buzg'unchi g'oya va yot mafkuralar ta'siridan asrash va bunyodkor g'oya asoslari, uning mazmunini yoritish uchun milliy segmentdagi saytlarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Demokratik islohotlar davrida jamiyat a'zolari orasida Internet tizimida nashr qilingan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga doir materiallarga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Ayniqsa, bu jarayon yoshlar auditoriyasida o'z aksini topmoqda. Mamlakatimiz yoshlarining tezkor axborotga bo'lgan ijtimoiy talabining jadal o'sib borish jarayoni kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 37 million kishi [7] bo'lsa, shundan Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotiga ko'ra, Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 32 milliondan oshgan, shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 30 million kishini tashkil etmoqda [8]. Shu bois aholining tabiiy talab va ehtiyojlarini sotsiologik jihatdan tahlil qilib o'rganish muhim omil hisoblanadi. Bunday ijtimoiy holat milliy segmentlar faoliyatiga global axborotlashuvning ta'sirini optimallashtirish zaruriyatini ilgari

suradi. Barqaror taraqqiyot sharoitida internet saytlarida milliy segmentni rivojlantirishga talab oshib bormoqda. Bunga quyidagi omillarni qayd etish mumkin:

Internet tarmog'ida mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarga salbiy jihatdan yondashuvchi xorijiy veb-saytlar mavjudligi va ular zamonaviy statistik, turli ijtimoiy, iqtisodiy mavzuda tahliliy ma'lumotlarga boy bo'lib, davlat tilida taqdim etilishi, dizaynning zamonaviy talablar darajasida yangilanishi, onlayn suhbatlashish va turli forum va tadbirlarning tashkil qilinishini qayd qilish mumkin. Shu maqsadda foydalanuvchilar orasida onlayn so'rovnomaga «Telegram»da o'tkazilib, O'zbekistondagi eng yaxshi Internet-nashr, bloger aniqlandi. Natijada «Kun.uz» veb-saytini 40% respondentlar qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, 2-o'rinni 20% ovoz bilan «Daryo.uz» band etdi.

Darhaqiqat raqamli jamiyat shakllanish jarayonida milliy segmentni faol rivojlantirish masalasi ancha avval ko'tarilgan bo'lsa-da, biroq, bu ishni amalga oshirishda samarali mexanizmlar yaratilmagani bois ushbu sohada muammolar ko'zga tashlandi. Hozirda Internet tarmog'idagi rasmiy va norasmiy saytlardagi axborotdan foydalanuvchilarning yosh ko'rsatkichi 14-15 yoshdan boshlanishi hisobga olinsa, ular, asosan, umumta'lim maktabi o'quvchilaridir. Bunda milliy segmentdan foydalanuvchi o'quvchi yoshlar va talabalar bo'lgani uchun ta'lim muassasalari saytlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijasiga ko'ra, Internet tizimidagi milliy segmentlar faoliyatini takomillashtirish uchun 4 ta kamchilikni bartaraf etish zaruriyat. Bular:

birinchidan, vizual ko'rinish, ya'ni milliy saytdan foydalanuvchilari uchun uning jozibadorligi davr talablariga javob bermasligi;

ikkinchidan, navigatsiya, ya'ni rasmiy saytdagi harakatlar, ma'lumotlarning boshqa sahifalarga o'tishdagi noaniqliklar mavjudligi;

uchinchidan, interaktivlik me'yori sustligi, ya'ni veb-saytda muayyan axborotni muhokama qilish, ma'lumotlarga nisbatan o'z shaxsiy fikrini bildirish, suhbatlarda ishtirok etish va o'z fikr-munosabatlarini bildirishga imkon bermasligi yoxud bunday imkoniyatlarning murakkabligi;

to'rtinchidan, umumta'lim maktablari saytlari zamonaviy ta'limdagi islohotlarga mos bo'lgan dizayn talablariga, axborotni jadal qabul qilish va on-layn ishtirok etish talablariga mos emas [9].

Bundan tashqari milliy g'oya va qadriyatlar fonidan, mavzuga oid mazmunli surat va roliklardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq. Hozir Internet tarmog'idagi milliy saytlar o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun ilmiy asoslangan axborotni qabul qilish, undan o'z bilimini oshirishda foydalanish, o'quvchilarga barcha fanlar bo'yicha innovatsion ma'lumotlar berish va axborotlar bazasini to'ldirish masofaviy ta'limni yo'lga qo'yishda muhim elektron manba rolini bajarishi lozim. Bunday vositalar o'quvchilar bilim olishidagi ijtimoiy o'rni va ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati masofaviy ta'lim berishda, jumladan, koronavirus pandemiyasi sharoitida namoyon bo'ldi. Mazkur saytlari maktab o'qituvchilari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, texnikumlar, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirishda muhim vositaga aylanishi zarur. Ayni vaqtda mamlakatda oliy ta'lim muassasalarining o'z veb-sayti mavjud bo'lib, har bir fakultet, kafedra va abituriyentlarga mo'ljallangan maxsus sahifa ochilgani diqqatga sazovor.

Internet tarmog'ida ro'yxatga olingan oliy ta'lim muassasalari saytlari faoliyati tahlil qilganda, ularda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1) ma'lumotlar bazasining yaratish jarayoni innovatsion talablarga mos emasligi; 2) oliy ta'limda kadrlar tayyorlash uchun zarur bo'lgan fanlarga doir ilmiy yangiliklarning kamligi; 3) on-layn ta'lim tizim va forumlar mazmuni yoritilmasligi; 4) abituriyentlar uchun mo'ljallangan axborot bazasining kamligi va oliy ta'lim muassasasi faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar yo'qligi kabi kamchiliklar mavjud [10].

Hozirda raqamli jamiyat rivojlanayotgan davrda talaba yoshlarni ta'lim muassasalari saytlariga joylashtirilgan ma'lumotlardan ko'ra, ko'proq ijtimoiy tarmoqlar qiziqirmoqda. Buning asosiy sababi ta'lim muassasalari saytiga joylashtirilgan ma'lumotlarning eskirganligi, ba'zan oddiy axborot xususiyatiga egaligidir. Ta'lim jarayonida olib borilayotgan tub islohotlarning mazmun-, mohiyati, sohaga oid yangi pedagogik-texnologik mexanizmlari, ularning istiqbolda foydaliligi yoritilmaganligi uchun ularga aksariyat talabalar qiziqmaydi. Boshqacha aytganda, bunday salbiy holatlar talabalarning zamonaviy talablariga javob bermaydi. Bu borada milliy ijtimoiy tarmoqlar

talaba yoshlarni o'ziga jalb eta olmagan sabab ular, asosan, xorijiy ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolish holati kuzatilmoqda. Shu bois mamlakatimiz yoshlarining ko'proq «Facebook» va «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmoqlariga qiziqishi natijasida ular ongida buzg'unchi g'oya va yot mafkuralar shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Buning asosiy sabablari buzg'unchi kuchlarni ushbu tarmoqlarda erkin harakat qilishi, ularning nazorat qilinmasligi va yoshlarni aldash uchun barcha usul va uslublarni qo'llash imkoniyatiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, ular anonim nomlardan foydalanib, har qanday ishni boshqalar nomidan bajarish xavfi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olib, milliy ijtimoiy tarmoq «Vsetut.uz» axboroti tahlil qilindi. Ma'lumki, 2019-yilda «Vsetut.uz» milliy saytlar reytingida 223-o'rinda turib, ushbu tarmoqqa kunlik tashriflar soni 59 tani tashkil etadi. Ularning 66% Toshkent shahridagi foydalanuvchilar, viloyatlardan, mintaq va xorijiy davlatlardan ham ushbu saytga tashrif buyuruvchilar mavjud. Jumladan, AQShning Vashington shahridan foydalanuvchilarning 1% tashrif buyuradi. 2024-yilda «Vsetut.uz» milliy saytlar reytingida 315 - o'rinda turib, ushbu tarmoqqa kunlik tashriflar soni 30 tani tashkil etadi. Ularning 70% Toshkent shahridan [11]. Foydalanuvchilar soni bo'yicha ijtimoiy tarmoq ijobiy ko'rsatkichga ega emas. Milliy tarmoqlarga nisbatan bunday passiv munosabatning tamoman aksini xorijiy tarmoqlarga bo'lgan munosabatda ko'ramiz. Kuzatuvga ko'ra, birgina «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmog'iga 16,5 mln. o'zbekistonlik foydalanuvchi a'zo ekan [12].

Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanish jarayonida milliy ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib, axborotni tarqatish holati o'rganildi. Ushbu tadqiqotlar natijasiga ko'ra, respondentlar tarmoqdagi quyidagi kamchiliklarni qayd etishgan:

- 1) axborot tarmoqlarining texnologik ishlash quvvati, ya'ni tezkorligi va mazmundorligi ya'ni kontenti ijtimoiy talablarga javob bermaydi;
- 2) dizaynda turli ranglardan foydalanilgan bo'lib, ular uyg'unligida bo'g'iqlik, ya'ni yaxlit kompozitsiya mavjud emasligi kuzatildi;
- 3) interfaol ma'lumotlar kamligi, axborot qulayligi jihatidan xorijiy saytlar darajasida emasligi.

Shu bois tadqiqot natijasiga ko'ra, mamlakatimiz ijtimoiy tarmoqlarining interfaol holati, ya'ni foydalanuvchilarni o'ziga jalb qilish jarayoni respondentlar tomonidan salbiy baholangan. Respondentlar globallashtirish jarayonida axborot makonida yutuqlarga erishgan «Facebook» ijtimoiy tarmog'ining o'ziga xos ustunliklarini quyidagicha belgilashgan:

- 1) dizaynda yorqin ranglardan foydalanilganligi;
- 2) struktura jihatdan qulayligi, ya'ni guruhlar tashkil etish, bloglar ochish va munozara olib borish imkoni mavjudligi;
- 3) yangilik va ma'lumotlarni tezlikda olish, turli foto va video materiallarni yuklash imkoniyati kengligi;
- 4) on-layn o'yinlar, suhbatlashish imkoniyatining yuqoriligi, masalan, do'stlarning yangiligi, harakatlari to'g'risida ma'lumotlar berish, mashhur shaxslar bilan do'stlashish, reklama berish va hatto, so'rovlar o'tkazish mumkinligi bilan ajralib turadi.

Xalqaro tajribada kunlik tashriflar soni uch mingdan kam bo'lmasligi lozim. Demak, milliy segmentdagi ijtimoiy tarmoqlarga kunlik tashrif buyuruvchilar va a'zolar va tashriflar soni yetarli emasligi ular faoliyati sust ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois jamiyatimizning barqaror taraqqiyot davrida milliy g'oya va mafkurani ommalashtirishda milliy segment saytlaridagi ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirishda foydalanuvchilar tashriflari, ya'ni auditoriyani sonini oshirish muhim masala hisoblanadi. Buning uchun «Facebook» va «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmoqlaridagi texnik tomonlar, qiziqarli mavzular, jozibador, tahliliy maqolalar va dizayn masalalarini zamonaviylashtirishga jiddiy e'tibor berish talab etiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish, bunda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga erishish maqsadida davlatimiz rahbari o'rinli uqtirganidek, «Internetdan 20 million aholi foydalanadi, deb hisobot bergansizlar. Biroq milliy internet orqali taklif etiladigan xizmatlar doirasi juda cheklangani sabab aholining aksariyat qismi internetdan faqat «Telegram»da yozishma uchun foydalanadi,

xolos». Shuningdek, davlat rahbari MDH davlatlari bo'yicha Internetning o'rtacha tezligi O'zbekistonga nisbatan 10 marta yuqoriligini qayd etdi.

Sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida «O'zbektelekom» kompaniyasi qo'shni mamlakatlar operatorlari bilan chegaradosh bog'lama (tarmoq)larni o'tkazish imkoniyatini kengaytirib, jamiyatning Internetga tabiiy natijasida Internet tarmog'iga ulanish uchun tashkil etilgan kanallar tezligini 2 marta ko'paytirdi.

Bugungi kunda demokratik islohotlar chuqurlashgan, jamiyat barcha sohalarini qamrab olgan davrda, ya'ni so'nggi besh yil ichida sohaga 2 milliard dollar, shu jumladan, 700 mln. dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritildi. Mamlakatimiz barcha viloyatlarida IT-parklar ochilib, ular uchun zarur bo'lgan alohida soliq tizimi joriy etildi. Olib borilgan samarali faoliyat natijasida sohada o'zini o'zi band qilgan axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar soni ortib bormoqda.

«O'zbektelekom» kompaniyasi axborot tarqatish qobiliyatini kengaytirish, xalqaro bozorda qo'shimcha sig'im olish uchun telekommunikatsiya operatorlari bilan hamkorlikni rivojlantirishi zarur. Raqamli jamiyat sharoitida MDH mamlakatlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, o'z imkoniyatlarini kengaytirishni asosan xususiy mablag' va kreditlar hisobiga takomillashtirayotgan «O'zbektelekom» kompaniyasidan farqli ravishda, Belarus Respublikasi milliy aloqa operatori 10 yildan ortiq davr mobaynida davlatning moliyaviy qo'llab-quvvatlashi asosida rivojlanmoqda. Kompaniyada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash uchun faqatgina tezlikni oshirishning o'zi yetarli bo'lmaydi, balki trafikni (tarmoqdan foydalanadigan oqimni) mahalliyashtirish bilan ham shug'ullanish zarur.

Nazarimizda, bunda mavjud internet narhlarini aholi uchun arzonlashtirish lozim. Chunki rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda Internet trafikni mamlakat hududida mahalliyashtirish 60%dan kam emas, O'zbekistonda esa faqat 19%ni tashkil etmoqda [13]. Shu bois, «O'zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasi jahonning ommaviy Internet resurslari, portallarini mahalliyashtirish va sifatli milliy kontentni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar olib bormoqda.

Mamlakatimizda internetdan foydalanish, jumladan, uning negizidagi milliy saytlar samaradorligini ta'minlash borasida zamonaviy elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimi yaratilib, davlat organlarining aholi va tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro hamkorligini ta'minlashda yangi mexanizmlar joriy etildi. E'tiborli jihati hozirda O'zbekiston hududida Internet tarmog'ining samaradorligini oshirish uchun xorijiy davlatlar kapitali ishtirokidagi korxonalar soni jami 269 tani tashkil etib, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida telekommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, Internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s.ni tashkil etsa, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s. tezlikda Internetga chiqish imkoniyati yaratilib, xalqaro tarmoqqa yuklanish darajasi 76,6 %ni tashkil etdi [14].

Bugungi kunda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat va jamiyatning barcha sohalariga bosqichma-bosqich tatbiq etilishida 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi raqamli iqtisodiyotning «drayver» sohasiga aylandi. Natijada uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga erishish, bu borada eksport hajmini 500 million dollarga yetkazish asosiy maqsadlardan biri ekanligi qayd etilgan. Oxirgi 7 yilda raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun 1,3 milliard AQSh dollari jalb etilib, shundan 54 %i (700 million AQSh dollari) to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalariga to'g'ri keldi. Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, optik tolali aloqa liniyalari uzunligi 20 ming kilometrdan 170 ming kilometrga yetib, 8,5 barobarga oshdi. Boshqacha aytganda Internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 58 barobarga oshdi [15]. Eng muhimi, Internet narxini tushirishga erishilib, Xalqaro Internetga ulanish narxi operator va provayderlar uchun qariyb 33 barobarga arzonlashdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda Internet tarmoqlari sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, mobil Internet narxi qariyb 9 barobar arzonlashdi. Qiyosiy tahlil qilinganda, So'nggi uch yarim yilda qo'shimcha tayanch stansiyalari o'rnatilib respublika bo'yicha mobil aloqa qamrovi darajasi 99% ga,

keng polosali mobil Internet qamrovi 98 %ga yetkazildi. Mamlakatimiz tomonidan erishilgan yutuqlarni xalqaro hamjamiyat e'tirof etmoqda. Jumladan, oxirgi 2 yilda Global innovatsion indeks reytingida AKT xizmatlari eksporti ko'rsatkichi bo'yicha 42 pog'onaga (129-o'ringan 87-o'ringa ko'tarildi) oshgan bo'lsa, 7 yil ichida mobil Internet narxi reytingida 68-o'ringan 15-o'ringa ko'tarilgani [16] sohada erishilgan muvaffaqiyatlardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, raqamli texnologiyalar har qanday davlat rivojidadagi muvaffaqiyatidir. Bunda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayotida raqamlashtirish qamrovini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad xalq farovonligini oshirish, xususan, har bir fuqaro uydin chiqmagan holda davlat xizmatlarini olish, tovarlar xarid qilish va kommunal to'lovlarni onlayn tarzda to'lash imkoniyatini yaratishdan iborat.

Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash va milliy saytlarni rivojlantirishda bir qator muammolar borligi va ular insonlar tomonidan global internet tarmog'idan olinayotgan axborotlarning ahamiyati bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga milliy segmentdagi ijtimoiy tarmoqlarga a'zolar va tashriflar soni kamligi, milliy segment tarkibidagi saytlar faoliyatini qoniqarsizligi, ularning faoliyatini takomillashtirish lozimligi ko'rinib turibdi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Bell D. The Coming of Post-industrial Society. A Venture in Social Forecasting. N.Y., Basic Books, Inc., 1973. – P. 59.
2. Masuda Y. “The Information Society”. Washinton. D.S., USA., 2020. – P. 165.
3. Hayashi Y. “Information Security Risk Managment”. Conference. Publisher: IEEE., 2020. – P. 95.
4. Beard K. Modification in the Proposed Diagnostic Criteria for Internet Addiction // Cyberpsychology & Behavior. 2011. № 4. – P. 22.
5. Castells M. The Rise of the Network Society: The Information Age: Economy, Society and Culture: Vol. I. Malden, MA; Oxford, UK: Blackwell, 1996. – P 594.
6. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi//Monografiya. –Toshkent: “Yoshlar”, 2020. – B 9.
7. O'zbekistonning doimiy aholisi soni ma'lum qilindi. <https://kun.uz/news/2024/01/05/ozbekistonning-doimiy-aholisi-soni-malum-qilindi>. 2024.
8. O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 32 milliondan oshdi. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/05/05/internet-users/>. 05.05.2024.
9. Алимов Ж. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги. <https://www.uzedu.uz/uz/news/index>. 01.12.2023.
10. Тохиров А. Ўзбекистон Республикаси олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги. <https://edu.uz/uz/news/category/1#gsc.tab=0>. 01.12.2023 й.
11. Статистика. <http://www.vsetut.uz/reports.php> 05.05.2024.
12. Статистика. <http://www.ok.ru/reports.php> 05.05.2024.
13. Sharipov M. «O'zbektelekom». https://uztelecom.uz/uploads/media/uz_compressed.pdf. (20.10.2024 й.).
14. Axmedov A. Taraqqiyotda axborotlashuv va raqamli iqtisodiyot. <https://ares.uz/storage/app/uploads/public/624/.pdf>. 05.10.2024.
15. Avvalboev I. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish davom etmoqda. <https://uza.uz/uz/posts/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalarini-keng-zhoriy-etish-davom-etmoqda>. 10.12.2024.
16. Avvalboev I. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish davom etmoqda. O'zbekiston Milliy axborot agentligi ma'lumoti (O'ZA). <https://uza.uz/uz/posts/axborot-kommunikatsiya-texnologiyalarini-keng-zhoriy-etish-davom-etmoqda>. 10.12.2024.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000